



## BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARINI KASBIY TAYYORLASHDA INSHOOTLARDAGI TASVIRIY SAN'AT ASARLARIDAN FOYDALANISH USULLARI

**Muallif:** Rizamuxamedov Raximjon Zakirovich <sup>1</sup>

**Affilyatsiya:** Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti dotsenti,  
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi <sup>1</sup>

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.14443569>

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda inshoatlardagi tasviriy san'at asarlaridan foydalanish usullarining o'ziga xos xususiyatlar tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar:** tasviriy san'at, grafika, qalamtasvir, rangtasvir, kompozitsiya, qadriyatlar, manzara, rassom.

Toshkentda metro kurilishi 1974-1975 yillarda katta quvonchli voqea bo'lgan edi. Birinchi yo'nalish hozirgi Buyuk Ipak Yo'li – Chilonzor yo'nalishlari orasida, ikkinchi yo'nalish esa bir oz keyinroq bunyod etildi. Metro bekatlarida tarixiy asarlar bilan boyitish rassomlarga ko'rsatma berildi. O'sha davrlarda juda ko'p O'zbekistonda taniqli rassomlar o'zlarining eskizlari bilan qatnashdilar. Olib kelingan va tasiya etilgan eskizlarni va hatto tayyor tasviriy san'at asarlarini “Metroqurilish” tashkilotida tashkil etilgan ijodiy ishlar guruhi ko'rib berar edi. O'zbekiston rassomlar uyushmasi va arxitektorlar hamkorligida Toshkent metrosini bezash ishlari samarali tashkil etildi.

Ikkinchi yo'nalish “Beruniy” metrosi talabar shaxarchasi va temir yo'l vokzali orqali mashinistlar bekatlari birlashtirdi. O'sha paytlar besh yillik reja asosida har bir amalga oshiriladigan ishlar belgilanib, olib borilar edi. O'sha davrlar sho'rolar partiyasining o'n oltinchi se'zdida belgilangan din va diniy xurofat yillari bo'lgan. Buni haqiqiy “diniy qatag'on” yillari deb atash mumkin. 1978-1985 yillarda hatto o'z ota-onasini janazaga borsa, partiyadan uni o'chirish avjiga chiqqan bir tutqinli yillar edi. Kimdir to'n (chopon), duppi kiyib, belini bog'lab, qiyliq bog'lab marakaga borsa ishdan haydalar edi. Massijlar, kabristonlarni ma'lum vaqtdan keyin buzish odat tusiga kirgan bir davlar har bir gazeta yoki OAV bir chetiga “Din xalq uchun afyundir” degan shior tantanali ravishda yozib qo'yilar edi.

Shunday bir davrlarda Respublikada taniqli bo'lgan, iqtidorli, salohiyatli bo'lgan juda ko'p odamlar “nishonda” turar edi. Turli xil uydirmali gaplar bilan yoki “dinni, urf-odat, qadriyat, marosim va an'analarni”ni ro'kach ishdan olib tashlash avziga chiqqan bir paytlar edi. Bu siyosat tasviriy, amaliy, mahobatli san'at adabiyot va hatto musiqa ham senzura nazoratidi bo'lgan bir davrlarda o'zbek tasiriy san'ati yo'lboshchilaridan sanalgan, atoqli rassom Chingiz Axmarovni ham chetlab o'tmadi.

O'sha davrlar siyosati go'yo "do'ppi tor kelsa, boshni olib kelish" zamoni zayli sifatida o'zbek xalqining bir qator ulug' rassomlarini ijodiy faoliyatiga u yoki bu ma'noda o'zining salbiy tasirini ko'rsatib qolmasdan chetlab o'tmasdi. Ilmiy va ijodiy ishlar mavzulari "markaz" bilan kelishilgan holda bajarilar edi. Oddiy katologni chiqarish uchun "Moskva" ruxsatisiz amalga oshirishning mutloqo iloji yo'q bo'lgan davr bo'lib, o'zbek xalqining ijodiy faoliyati uchun "qora, taqib zamon" sifatida hozir o'sha mudhish kunlarda yashagan odamlarning qalbida muhirlanib qolgan. Hatto o'sha davrlar o'zbek adabiy tili asoschisi, she'riyat mulku sultoni hisoblangan Alisher Navoiy ijodiga ham katta manaviy ziyon yetkazdi desam ayni haqiqat bo'ladi.

O'sha davrlar O'zbekiston poytaxti Toshkent shahrida qurilgan metro bekatlarini jihozlash masalasi kunning asosiy vazifasi sifatida hammaning diqqat e'tiborida edi. O'zbekiston yo'nalishida Alisher Navoiy bekatini badiiy bezash bo'yicha O'zbekiston xalq rassomi Chingiz Axmarov zimmasida bo'lib, undagi badiiy bezak va tasviriy san'at asarlari aynan rassom Chingiz Axmarov tomonidan eskizlari tayyorlangan. Biz o'sha paytda talaba edik. Ustoz 1946 yil Toshkentdagi Alisher Navoiy opera - balet teatirini bezagan, V.I.Shusuv arxitektor xurmatiga sazovor bo'lgan rassom edilar. Ustozni xar bir asarlarini shogirdlar o'nlab o'quvchilar kuzatar edi. Ular orasida Temir Saydullaev, Sodiq Raxmonov va boshqa rassomlar bor edi. Xuddi shu ulug' rassomlar qatorida men ham Alisher Navoiy ijodini o'rganish yillar edi. Bu mavzu meni ham aynan 1968 yillarda o'z sehriga qamrab olgan edi.

Hozir metroda yurgan xar bir kishi nega Alisher Navoiyning beshta shox asari "hamsa" - "Farxod-Shirin", "Layli-Majnun", "Saddiy Iskandariy", "Sabbayi Sayyor" borligi, biroq, "Hayratul – Abror" 5-asari yo'qligidan hayron bo'lishi tabiiy.

"Hayratul Abror" ya'ni, "Yaxshilar xayrati" o'rniga "chiroyli gul" li keramik panno qo'yilgan, sabab nima degan savol meni qiziqtiradi. Endi Alisher Navoiy "Xayratul Abror" asari ichiga kirsak, u 20 ta hikoyadan iborat bo'lib, u insonni aloh bilan bog'laydi. O'qib chiqsak insonniyani yetuk inson xakida ekan. "Xotomtoy hikoyasi" bu xalollik haqida insonni alloh oldidagi burch va vazifalari haqida Navoiy haqida boyluk to'g'risida inson ongiga ta'sir qiluvchi asar ekan. Navsini tiygan alloxni tanishidir, Iskandar dunyoni zabt etadiyu qo'lini bo'sh qilib ketadi. Kabi chuqur millatga xos bo'lgan fikrlar yig'indisidir. Usha paytdagi markazdan kelgan 7-8 kishilik komissiyasi bo'larga yoqmad, semmetriyani, biri iqtisodiy mablag'larni o'ylab qisqartirildi va hozirgacha ular ko'rsatgandek bo'lib turibdi. Chingiz Axmarovga talabalar, shogirtlar savoliga ana joy bor, go'lni urnigay oki yoniga kimgan kasb etsa bir qo'l chizibqo'yar deb qo'yar edilar. By ustoz so'zlariga xozir O'zbekiston Respublikasida xizmat kursatgan madaniyat xodimi Temir aka Sadullaev va O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan Yoshlar murabbiysi Sodiqjon Raxmonovlar ham guvoxidir. Bu sizlarga xozir mana salkam 45 yil bo'ldi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Axmedova M. Ranglarda musavvir jilosi. Ma'naviy-ma'rifiy va axborot. 28.03.2012. 13 (176).

Levteeva L. Tarixingdir ming asarlar. O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 08.04.2016.